Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

DEMOKRATIK INSTITUTLAR ORQALI INSON QADRINI HIMOYA QILISHNING O‘ZIGA HOS XUSUSIYATLARI

Sodiqova Mahbubaxon Raxmonaliyevna
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Otaboyeva Muazzamxon Abdumanapjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20365874

Annotatsiya: Mazkur maqolada demokratik institutlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, ularning inson qadrini ta’minlashdagi o‘rni hamda fuqarolik jamiyati taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, demokratik qadriyatlarning shakllanishi, mahalla institutining jamiyat hayotidagi o‘rni, tasavvuf ta’limotidagi “komil inson” konsepsiyasi hamda Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash siyosatining falsafiy asoslari yoritilgan. Tadqiqot davomida tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va ijtimoiy-falsafiy yondashuv metodlaridan foydalanildi.
Kalit so‘zlar: demokratiya, demokratik institutlar, inson qadri, fuqarolik jamiyati, mahalla, komil inson, huquqiy davlat, tasavvuf, ijtimoiy adolat, ma’naviyat.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-философская сущность демократических институтов, их роль в обеспечении человеческого достоинства и значение в развитии гражданского общества. Также освещаются вопросы формирования демократических ценностей, роль института махалли в жизни общества, концепция «совершенного человека» в суфийском учении, а также философские основы политики возвышения человеческого достоинства в Новом Узбекистане. В ходе исследования использованы методы историчности, системности, сравнительного анализа и социально-философского подхода.
Ключевые слова: демократия, демократические институты, человеческое достоинство, гражданское общество, махалля, совершенный человек, правовое государство, суфизм, социальная справедливость, духовность.

Abstract: This article analyzes the socio-philosophical essence of democratic institutions, their role in ensuring human dignity, and their significance in the development of civil society. The study also highlights the formation of democratic values, the role of the mahalla institution in social life, the concept of the “perfect human” in Sufi teachings, and the philosophical foundations of the policy of elevating human dignity in New Uzbekistan. The research employs methods of historicism, systematization, comparative analysis, and socio-philosophical approach.
Keywords: democracy, democratic institutions, human dignity, civil society, mahalla, perfect human, rule of law, Sufism, social justice, spirituality.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida demokratik institutlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Demokratik institutlar inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar markazida “inson qadri” tamoyilining ustuvorligi demokratik institutlarning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Demokratik institutlar nafaqat siyosiy tizimning tarkibiy qismi, balki ijtimoiy ong, huquqiy madaniyat va ma’naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu bois mazkur masalani ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Demokratik institutlar jamiyatning siyosiy, huquqiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi muhim mexanizmlardan biridir. Ular orqali xalq hokimiyatchiligi, qonun ustuvorligi va inson huquqlari amaliyotda namoyon bo‘ladi. Demokratik institutlarga parlament, saylov tizimi, sud-huquq organlari, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari kiradi.

Antik davr mutafakkirlari demokratiya g‘oyasining dastlabki nazariy asoslarini yaratganlar. Xususan, Aristotel demokratiyani davlat boshqaruvining muhim shakli sifatida tahlil qilgan bo‘lsa, yangi davr mutafakkirlari — Jon Lokk, Sharl Monteske va Jan-Jak Russo hokimiyatlar bo‘linishi va xalq suvereniteti g‘oyalarini ilgari surdilar.

Zamonaviy falsafada demokratik institutlar kommunikativ va deliberativ yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Xususan, Yurgen Habermas demokratiyani erkin va oqilona muloqot maydoni sifatida baholaydi. Bu yondashuv demokratiyani nafaqat siyosiy tizim, balki madaniy-me’yoriy hodisa sifatida tushunishga xizmat qiladi.

Demokratik institutlarning asosiy vazifalaridan biri inson qadrini ta’minlashdir. Inson qadri shaxsning jamiyatdagi o‘rni, ma’naviy qiyofasi, faoliyati va boshqalarga munosabati orqali namoyon bo‘ladi. Q. Nazarov ta’kidlaganidek, inson qadri uning ijtimoiy xususiyatlari va ma’naviy kamoloti bilan belgilanadi[1]. Inson qadrining shakllanishida oila, ta’lim, ma’naviy muhit va ijtimoiy qadriyatlar muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” tamoyili demokratik islohotlarning falsafiy asosini tashkil etmoqda. Xususan, 2022-yilning “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb e’lon qilinishi jamiyatda inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarning mantiqiy davomidir.

Fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo‘lgan mahalla tizimi ham inson qadrini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalla azaldan xalqning o‘zini o‘zi boshqarish shakli sifatida shakllangan bo‘lib, unda hamjihatlik, mehr-oqibat va jamoatchilik nazorati ustuvor hisoblangan. Abu Bakr Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida mahallani xalq boshqaruvining muhim shakli sifatida ta’riflaydi.

Tasavvuf ta’limotida ham inson qadri va komilligi markaziy masalalardan biri sifatida talqin etilgan. “Komil inson” konsepsiyasi insonning ma’naviy kamolotga erishishini ifodalaydi. Xususan, Ibn al-Arabiy tomonidan ilgari surilgan “Vahdatu-l-vujud” ta’limoti insonning ilohiy kamolot sari intilishini asoslaydi[1]. Tasavvufda inson qalbini poklash, nafsni tarbiyalash va ma’rifatga erishish orqali komillikka yetishish g‘oyasi ilgari suriladi. Bu esa inson qadrining ma’naviy-falsafiy mohiyatini ochib beradi.

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, inson borliqning eng mukammal mavjudoti bo‘lib, unda ilohiy sifatlar mujassamlashgan. Shu bois komil inson g‘oyasi insonning nafaqat axloqiy yetukligini, balki jamiyat oldidagi mas’uliyatini ham ifodalaydi. Tasavvuf ahli insonning ichki dunyosini poklash orqali jamiyatni ma’naviy jihatdan yuksaltirish mumkinligini ta’kidlaydi[2]. Ayniqsa, tasavvufdagi sabr, qanoat, halollik, mehr-oqibat va adolat kabi qadriyatlar bugungi demokratik jamiyatning ma’naviy asoslari bilan uyg‘unlashadi.

Bahouddin Naqshband ta’limotida “Dil ba yor-u, dast ba kor” tamoyili ilgari surilib, insonning jamiyatdan uzilmagan holda ma’naviy kamolotga erishishi zarurligi ta’kidlanadi[3]. Bu g‘oya insonning nafaqat o‘z ruhiy dunyosini boyitishi, balki jamiyat taraqqiyotiga ham faol hissa qo‘shishi kerakligini

[1] Nazarov Q. *Jahon falsafasi qomusi.* 1-kitob. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2023. – B. 445–447.
[2] Komilov N. *Tasavvuf.* – Toshkent: Movarounnahr, 2009. – B. 112–118.
[3] Bahouddin Naqshband hikmatlari va Naqshbandiya ta’limoti haqida қаранг: Komilov N. *Tasavvuf.* – Toshkent, 2009. – B. 146.

anglatadi. Shu jihatdan tasavvuf insonni ijtimoiy faollik, ma'naviy poklik va adolat tamoyillari asosida tarbiyalovchi muhim ma'naviy maktab hisoblanadi.

Tasavvuf ta'limotidagi komil inson konsepsiyasi bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki zamonaviy demokratik jamiyatning barqaror rivojlanishi ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega insonlarni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Inson qadrini ulug'lash, uning sha'ni va erkinligini himoya qilish kabi demokratik tamoyillar Sharq mutafakkirlari ilgari surgan insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'un holda rivojlanmoqda[4].

Shuningdek, tasavvufda insonning komillikka erishish bosqichlari — shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat tushunchalari orqali izohlanadi. Ushbu bosqichlar insonning axloqiy va ruhiy jihatdan o'zini takomillashtirishini ifodalaydi[5]. Bu jarayon insonning o'z nafsini yengishi, ezgulik va adolat sari intilishi bilan bog'liq bo'lib, komil insonni shakllantirishning muhim mezoni sifatida namoyon bo'ladi.O'zbekistonning demokratik taraqqiyot yo'li inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Konstitutsiyada fuqarolarning tengligi, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqi, erkin fikr bildirish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi demokratik tamoyillar mustahkamlab qo'yilgan[5]. Bu esa demokratik institutlarning inson qadrini ta'minlashdagi amaliy rolini yaqqol namoyon etadi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi ham inson manfaatlarini ta'minlash, fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash demokratik taraqqiyotning muhim mezoniga aylanmoqda[6]. Ayniqsa, sud-huquq tizimidagi islohotlar inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda[7].

Bugungi kunda mamlakatimizda inson manfaatlari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, davlat organlarining "xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyil asosida faoliyat yuritishi demokratik boshqaruvning yangi bosqichini boshlab berdi[8]. Bu esa fuqarolarning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini oshirish, ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, demokratik institutlarning rivojlanishi jamiyatda ijtimoiy adolat, bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Fuqarolarning qonun oldida tengligi, so'z va vijdon erkinligining kafolatlanishi, ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishi jamiyatda demokratik qadriyatlarning qaror topishiga zamin yaratadi[9]. Bu esa inson qadrini ulug'lashning nafaqat huquqiy, balki ma'naviy asoslarini ham mustahkamlaydi.

Demokratik institutlar faoliyatining samaradorligi fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongiga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli aholining huquqiy savodxonligini oshirish, yoshlarni demokratik qadriyatlar ruhida tarbiyalash va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish bugungi taraqqiyotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi[10]. Ayniqsa, yosh avlodning siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki demokratik jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa

Demokratik institutlar jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik va inson qadrini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Ular orqali fuqarolarning siyosiy faolligi, huquqiy madaniyati va ijtimoiy

[4] Hamidov B. *Insonnoma: Hayot, Hayrat, Hikmat.* – Toshkent, 2014. – B. 8–10.
[5] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 20, 27, 33-moddalar.
[6] Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 8–12.
[7] Saifnazarov I. *Yangi O'zbekiston: inson qadri ulug'langan yurt.* – Toshkent, 2023. – B. 25–27.
[8] Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 15.
[9] Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2023. – B. 445–449.
[10] Meliboyev A. "Inson qadri". // Yangi O'zbekiston, 2022-yil 9-iyun. – B. 7–8.

mas'uliyati rivojlanadi. Yangi O'zbekistonda inson qadri va manfaatlarini ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etish demokratik islohotlarning bosh maqsadiga aylangan.

Shuningdek, milliy-ma'naviy meros, xususan tasavvuf ta'limoti va mahalla institutining tarixiy tajribasi insonparvar demokratik jamiyat qurishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois demokratik institutlarni takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash va inson qadrini ulug'lashga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholining davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va ochiqlik tamoyillarini qaror toptirish demokratik taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo'lib qoladi. Chunki fuqarolarning siyosiy faolligi va ijtimoiy mas'uliyati kuchli bo'lgan jamiyatda inson qadri va manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi.Inson qadrini ulug'lashga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etish jarayoni uzluksiz va izchil davom etadigan murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Bu jarayonda demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati, milliy-ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – Toshkent: Universitet, 2004.
2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2023.
3. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Saifnazarov I. Yangi O'zbekiston: inson qadri ulug'langan yurt. – Toshkent, 2023.
6. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
7. Hamidov B. Insonnoma: Hayot, Hayrat, Hikmat. – Toshkent, 2014.
8. Meliboyev A. "Inson qadri". // Yangi O'zbekiston, 2022-yil 9-iyun.
9. Alizade A. Islamskiy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva, 2007.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.